Система упражнений по методике обучения средствам речевой выразительности узбекского языка	587
<i>Фаттахова Д. А.</i>	
Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	592
<i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	598
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Raqamli o'yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta'siri	601
<i>Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li</i>	
OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning zamonaviy metodlari	605
<i>Sobirov Zahridin Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda kiriyativlikni rivojlantirish	609
<i>Qo'chqarov Mirzavali Qo'zibayevich</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	613
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi	617
<i>Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education 622 <i>Kamol'dinova Diyora Jaloliddin qizi</i>
	Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 626 <i>Xudoynazarova Moxira Xakimovna</i>
	Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish 629 <i>Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash 633 <i>Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna</i>
	Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni 638 <i>Po'latova Marjona Inomjon qizi</i>
	STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar 643 <i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>
	Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646 <i>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</i>
	O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650 <i>Gaparova Mastona Safaraliyevna</i>
	Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654 <i>Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi</i>
	Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657 <i>Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra</i>
	Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665 <i>Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>
	Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668 <i>Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i>
	Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672 <i>Usmonov Umid Allayorivich</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>
	Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681 <i>Ergashev Nozim Nabiyeovich</i>
	Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684 <i>Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi</i>
	Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687 <i>Karimova Charos Abduhalim qizi</i>
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691 <i>Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi</i>
	"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695 <i>Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</i>
	Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699 <i>Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</i>
	Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705 <i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>
	Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710 <i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i>
	Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714 <i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</i>
	Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718 <i>Berdiyeva Malika</i>
	Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</i>



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundixan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	

TOSHKENT XALQARO KINOFESTIVALLARINING ARAB DAVLATLARI VA AFRIKA MAMLAKATLARI KINOSAN'ATIDA TUTGAN O'RNI

Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni, davlatlar o'rtasida do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarining shakllanishi hamda rivojlanishi, shuningdek, o'zbek rejissorlari tomonidan yaratilgan ayrim filmlarning Arab va Afrika mamlakatlarida namoyish etilishi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada Arab va Afrika mamlakatlari vakillarining kinofestivallarda ishtiroki yildan yilga ortib borayotgani, ularning kino asarlari nufuzli nominatsiyalarda e'tirof etilayotgani ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro kinofestival, kinosan'at, rejissor, forum, BMT, YuNESKO, nominatsiya.

Abstract: This article analyzes the significance of the Tashkent International Film Festivals in the development of the cinematic arts of Arab countries and African states, their role in strengthening friendly and cultural relations between nations, as well as the screening of selected Uzbek films directed by national filmmakers in the Arab East and Africa. The study highlights, from an academic perspective, the steadily increasing participation of filmmakers from these regions in international film festivals, along with the growing recognition of their works, which are increasingly receiving awards in prestigious categories.

Key words: international film festival, cinematography, director, forum, UN, UNESCO, nomination.

Аннотация: В статье рассматривается значение Ташкентских международных кинофестивалей в развитии киноискусства арабских стран и государств Африки, их роль в укреплении дружественных и культурных связей между государствами, а также особенности показа ряда узбекских фильмов, созданных отечественными режиссёрами, в странах Арабского Востока и Африки. В работе научно осмысливается тенденция устойчивого роста участия кинематографистов данных регионов в международных кинофестивалях, а также повышение статуса их фильмов, всё чаще удостоивающихся призовых мест в престижных номинациях.

Ключевые слова: международный кинофестиваль, киноискусство, режиссёр, форум, ООН, ЮНЕСКО, номинация.

KIRISH

Xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar har doim muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, ushbu jarayonni kino san'ati misolida yaqqol kuzatish mumkin. Xususan, XX asrning 60–70-yillarida kino sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalari jadal rivojlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atining xalqaro maydondagi o'rni masalasi sovet davrida o'tkazilgan Toshkent xalqaro kinofestivallari doirasida faol o'rganilgan. Xususan, davriy nashrlarda chop etilgan maqolalarda mazkur kinoforumlarning Osiyo va Afrika mamlakatlari kinoijodkorlari uchun muhim ijodiy va mafkuraviy maydon bo'lib xizmat qilgani ta'kidlangan. "Kino" jurnalining 1968–yildagi sonlarida festival dasturlari, namoyish etilgan filmlar hamda ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida mufassal tahlillar keltirilgan bo'lib, bu materiallar festivalning xalqaro ahamiyatini ochib beradi.

Toshkent kinofestivallarining siyosiy va madaniy ahamiyati masalasida R. Qurbonov tomonidan yozilgan publitsistik materiallar alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif "Sovetskiy ekran" jurnalida e'lon qilingan maqolasida festivalning tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilganini asoslab ko'rsatadi. Shuningdek, markaziy matbuot nashrlari – "Pravda", "Komsomolskaya pravda" hamda



“Pravda Vostoka” sahifalarida chop etilgan materiallarda Toshkent kinofestivali jahon kinosan’ati miqyosida muhim madaniy hodisa sifatida baholanadi. Ushbu manbalar festivalning xalqaro nufuzi va unda ishtirok etgan Arab va Afrika mamlakatlari kinoijodkorlarining faol ishtirokini yoritishda muhim empirik asos bo’lib xizmat qiladi.

Toshkent xalqaro kinofestivallarining institutsional va tashkiliy jihatlarini masalasi esa arxiv manbalari asosida kengroq ochib beriladi. O‘zbekiston Markaziy arxivida saqlanayotgan hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Kinematografchilar uyushmasi va O‘zbekiston SSR davlat organlarining joriy arxiv materiallarida festivalni tashkil etish jarayonlari, ishtirokchi davlatlar tarkibi hamda film almashinuvi masalalari aks ettirilgan. “Toshkentdagi xalqaro kinematografchilar forumi” nashrida keltirilgan materiallar festivalning mintaqaviy va global kino jarayonlariga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Mazkur manbalar Toshkent kinofestivallarining Arab va Afrika mamlakatlari kinosan’ati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini kompleks tahlil qilishga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar tahlil qilindi. Maqolani tayyorlashda A. A. Isaxo‘jayevning ilmiy tadqiqotlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivining R–2564 va R–1 fondlarida saqlanayotgan arxiv manbalari, davriy nashrlar hamda boshqa ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan’atining eng yaxshi namunalarini aniqlash va rag‘batlantirish, turli mamlakatlar kinematografistlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash maqsadida SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Kinematografiya qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan Arab davlatlari va Afrika mamlakatlarining xalqaro kinofestivali tashkil etildi.

Festival shiori quyidagicha belgilangan edi: “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlarning ozodligi uchun!”

Arab davlatlari va Afrika mamlakatlarining xalqaro kinofestivali 1968–yil 20–21–oktabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi.

Festivalga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish maqsadida tashkiliy qo‘mita hamda Bosh direksiya tashkil etildi. Uning tarkibiga davlat muassasalari va jamoatchilik ijodiy tashkilotlari vakillari, shuningdek, madaniyat va san’at arboblari kiritildi.

Toshkent festivaliga Arab davlatlari va Afrika mamlakatlaridan 60 dan ortiq kinoijodkorlar taklif qilindi.

Festival dasturi doirasida tashkilotchilar tomonidan ijodiy muhokama (diskussiya) o‘tkazildi, uning mavzusi festival shoriga bag‘ishlandi. Shuningdek, tashrif buyurgan mehmonlar Toshkent aholisi, yozuvchilar va olimlar bilan uchrashdilar, respublikadagi madaniy yodgorliklar hamda tarixiy obidalar bilan tanishdilar. Festival kunlarida yirik kinobozor ham tashkil etilib, unda turli mamlakatlar vakillari kino mahsulotlari bilan tajriba almashdilar.

O‘zbekiston va uning poytaxti festivalni o‘tkazishga to‘liq tayyor edi. Festival ishtirokchilarining samarali faoliyati va ijodiy muloqoti uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ushbu tadbir uchun shaharning eng yaxshi mehmonxonalaridan biri hamda 2 500 tomoshabinni sig‘dira oladigan San’at saroyi ajratildi.

“Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari Birinchi Toshkent xalqaro kinofestivali ushbu mamlakatlarining madaniy hayotida muhim voqeaga aylanadi. U xalqaro darajadagi kinoijodkorlar hamkorligini rivojlantirish yo‘lidagi yangi qadam bo‘ladi hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”, – deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi Qurbonov.

Toshkent kinofestivali doirasida an’anaviy tanlov va mukofotlar taqdim etish marosimlari o‘tkazilmadi. Forumning asosiy mohiyati Osiyo va Afrika kabi ikki buyuk qit’a xalqlari kinosan’atining keng ko‘lamli va nufuzli ko‘rgazmasini tashkil etishdan iborat bo‘lib, unda mashhur ustalar bilan bir qatorda yangi va jadal rivojlantirayotgan milliy kinematografiya vakillarining asarlari namoyish etildi. Shuningdek, festivalda Arab davlatlari va Afrika xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurash mavzusiga bag‘ishlangan boshqa mamlakatlar filmlariga ham munosib e’tibor va e’tirof ko‘rsatildi.

Festivalga jahon kinosan’atining taniqli namoyandalari, xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, YuNESKO hamda xalqaro kinofederatsiyalar vakillari taklif etildi. Elik mamlakat festivalda hujjatli va badiiy filmlar bilan ishtirok etdi. Xalqaro kinofestivalda kinematografiyasi rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda milliy kinematografiyasi endigina shakllanayotgan davlatlar ham qatnashdi.

Kinofestivallarda Arab davlatlari va Afrikadan ishtirokchilar soni yildan-yilga oshib bordi. Jumladan, birinchi Toshkent kinofestivalida 1968–yil 31 ta arab va Afrika mamlakati ishtirok etgan bo‘lsa, ikkinchi festivalda 1972–yil – 26 ta, uchinchi festivalda 1974–yil – 32 ta, to‘rtinchi 1976–yil va beshinchi 1978–yil kinofestivallarda esa 40 dan ortiq mamlakat qatnashdi. Ishtirokchi davlatlar sonining to‘rtinchi kinoforumda sezilarli ortishi Angola, Benin, Gvineya–Bisau, Mavritaniya, Madagaskar, Mozambik, Yashil Qirlar orollari, Ekvatorial Gvineya, Markaziy

Afrika Respublikasi, San–Tome va Prinsipi orollari hamda Ruanda kabi yosh davlatlar hisobidan sodir bo'ldi. Ushbu mamlakatlarda kino san'ati endigina shakllanayotgan bo'lishiga qaramay, ularning festivalda ishtirok etishi katta ahamiyat kasb etdi.

Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari Toshkent xalqaro kinofestivalida rasmiy namoyish uchun qator filmlarni taqdim etdilar. Xususan, uchinchi kinofestivalda 1974–yil 14 davlat tomonidan 15 ta badiiy hamda 16 ta hujjatli va qisqa metrajli film namoyish etilgan bo'lsa, to'rtinchi festivalda 1976–yil 15 davlatdan 15 ta badiiy va 21 ta hujjatli hamda qisqa metrajli film ko'rsatildi. Shu bilan birga, ikkinchi kinoforumda 1972–yil ushbu mintaqadagi barcha mamlakatlar atigi 7 ta badiiy va 20 ta qisqa metrajli film bilan ishtirok etgan edi.

Birinchi Toshkent kinofestivalida Arab davlatlari va Afrika mamlakatlariga mansub 10 ta film turli mukofotlarga sazovor bo'ldi. Ikkinchi festivalda – 15 ta, uchinchi festivalda – 16 ta, to'rtinchi festivalda esa – 13 ta film mukofotga loyiq topildi. Shuningdek, O'zbekiston gazetolari, jurnallari va jamoat tashkilotlari tomonidan ikkinchi festivalda – 10 ta, uchinchi festivalda – 7 ta va to'rtinchi festivalda – 9 ta mukofot ta'sis etildi. Ushbu mukofotlar quyidagi filmlarga berildi:

- Iordaniya – “Shaharlar guli”;
- Misr – “Mening aziz qizim”, “Tun va panjara”;
- Iroq – “Yoshlik”, “Buriqish”, “Neft–72”;
- Livan – “Livan hunarmandlari”;
- Tunis – “Fellaxlar”;
- Marokash – “Xurmolar pishganda”, “Marokash–76”;
- Suriya – “Operatsiya soat 6 da”;
- Liviya – “Cho'l marvaridi”;
- Zambiya – “Zambiya baliqchilari”;
- Gabon – “Janubda tamamlar sukutda”;
- Niger – “Vazu – ko'pxotini”.

Beshinchi festivalning rasmiy dasturi doirasida namoyish etilgan barcha filmlarga ishtirokchi diplomlari topshirildi. Eng yaxshi kinokartinalar jamoat tashkilotlari, markaziy gazeta tahririyatlari hamda O'zbekiston gazetalarining maxsus mukofotlari va diplomlari bilan taqdirlandi. Mukofot olgan filmlar orasida Arab va Afrika mamlakatlari kinostudiyalariga tegishli ko'plab asarlar mavjud edi.

Filmlar bilan keng ko'lamlı almashinuv hamda eng yaxshi kinokartinalarning tarqalishida, xususan, “O'zbek-film” va Arab hamda Afrika mamlakatlari kinostudiyalari mahsulotlarining ommalashuvida “Союзэкспортфильм” tomonidan kinofestivallar doirasida tashkil etilgan kinobozor muhim rol o'ynadi.

Agar uchinchi festivalda kinobozor faoliyatida 22 mamlakatdan 30 nafar xorijiy kinoprokat firmalari va davlat kinotashkilotlari vakillari ishtirok etgan bo'lsa, to'rtinchi festivalda bu ko'rsatkich 43 mamlakatdan 63 nafar qatnashchiga yetdi. To'rtinchi festival kunlarida Sudan, Gvineya, Mali, Iroq, Efiopiya, Madagaskar va boshqa mamlakatlarning kinotashkilotlari bilan sovet filmlarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Beshinchi festivalda esa Arab davlatlari va Afrika mamlakatlarini ham o'z ichiga olgan 40 dan ortiq davlatning ishbilarmon doiralari qariyb yuzta sovet filmi sotib oldilar.

Toshkentda o'tkazilgan ushbu kinoforumlar zamonaviy hayotning dolzarb muammolarini hal etishga xizmat qildi. “Toshkent festivallarini o'tkazish yaxshi va samarali an'anaga aylandi. Uch qit'a kino ustalarining uchrashuvlari do'stlik va ijodiy hamkorlik ruhida o'tib, sayyorada tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqlarning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, milliy mustaqillik va demokratiya uchun kurash vazifalariga xizmat qilmoqda”, – deb qayd etilgan edi KPSS MK Bosh kotibi, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi L. I. Brejnevning Toshkentdagi xalqaro kinofestival ishtirokchilari va mehmonlariga yo'llagan tabrik telegrammasida.

Toshkent xalqaro kinofestivalida ishtirok etgan Arab va Afrika mamlakatlari kinosan'ati ustalari o'z Vatamlariga qaytgach, hamyurtlari oldida O'zbekistonda bo'lgan safarlari davomida olgan taassurotlari, o'zbek xalqi bilan muloqotlari, ularning samimiyligi va mehmondo'stligi haqida iliq fikrlar bildirganlar.

Jumladan, Senegal kinoaktyorlari, ssenaristlari va rejissyorlari – 3–Toshkent kinofestivali ishtirokchilari – mamlakat poytaxti Dakarda yoshlar bilan uchrashuvda Toshkent va Samarqanddagi zavod va fabrikalar, sovxoz va kolxozlar, maktab va shifoxonalarga tashrif buyurganlarida har joyda o'z yaqinlaridek iliq kutib olinganliklarini ta'kidlaganlar.

Shu bilan birga, senegallik kinosan'at vakillari o'zlariga katta taassurot qoldirgan jihat sifatida o'zbek xalqi turmush darajasining yuqoriligini, iqtisodiy qurilish ishlarining ulkan ko'lamda olib borilishini, kolxoz va sovxozlarning zamonaviy texnika va malakali kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlanganini alohida qayd etganlar.



O'zbekiston kinematografiya ustalari ham o'z hamkasblari bilan ishchan aloqalar o'rnatish yoki turistik guruhlar tarkibida Arab va Afrika mamlakatlariga tez-tez safar qilib turganlar. Jumladan, Toshkent xalqaro kinofestivali Bosh direksiyasi topshirig'iga binoan 1972-yil rejissyor Yu. Agzamov Jazoir, Tunis va Marokashda xizmat safarida bo'lib qaytdi, 1974-yil esa rejissyor Z. Z. Sabirov Jazoir va Tunisga tashrif buyurdi. Shuningdek, 1972-yil va 1976-yillarda O'zbekiston Kinematografchilar uyushmasi boshqarmasining birinchi kotibi Misrda bo'ldi.

“O'zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan yaratilgan L. Fayzievning “Simurg” va E. Ishmuxamedovning “Sevishganlar” nomli badiiy filmlari sovet filmlari haftaliklari doirasida Mali, Livan, Suriya, Jazoir, Sudan, Senegal va Gvineyada muvaffaqiyatli namoyish etildi. Shuningdek, 1972-yil boshlarida Tunisda “Sevishganlar” filmining tantanali premyerasi bo'lib o'tdi.

Ko'plab o'zbek filmlari Arab va Afrika mamlakatlari tomonidan sotib olindi. Jumladan, “Simurg” filmini Gvineya, Senegal, Tunis, Suriya, Jazoir va Somali davlatlari xarid qildi. “Yettinchi o'q” filmini Uganda, Tunis, Marokash, Jazoir va Misr Arab Respublikasi sotib oldi. “Abu Rayhon Beruniy” filmini Gvineya, “Qora konsulning halokati” filmini esa Janubiy Afrika Respublikasi xarid qildi.

Shuningdek, Arab va Afrika mamlakatlari tomonidan “O'zbekfilm” kinostudiyasining “Farhod qahramonligi”, “Ikki yurak dostoni”, “Sevishganlar”, “Yigirma oltinchisi otilmasin” kabi filmlari ham sotib olindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kino san'ati sohasidagi aloqalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu hamkorlik turli mamlakatlar san'at ustalarini birlashtirgan holda samarali faoliyat olib borish imkonini yaratdi. Xususan, o'zaro tajriba almashish hamda boshqa davlatlar yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari vujudga keldi. O'zbek kino ustalarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston kinosan'atida sezilarli o'sishlarga erishildi. Shuningdek, o'zbek rejissorlari sohada xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini izchil rivojlantirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z.MA, R-2564-fond, 1-ro'yxat, 826-ish, 14-varoq.
2. Смотр киноискусства стран Азии и Африки // Кино. – № 6. – Iyun, 1968-yil. – B. 1.
3. R. Qurbonov. “Salom, Festival!” // Sovetskiy ekran. – № 19. – 1968-yil. – B. 1.
4. Международный форум кинематографистов в Ташкенте. – Toshkent, 1978-yil. – B. 89–91, 93–97, 100–105, 109–115.
5. Комсомольская правда. – 1978-yil, 2-iyul. – B. 112.
6. Правда. – 1978-yil, 24-may. – B. 113.
7. Правда Востока. – 1974-yil, 6-avgust. – B. 115.
8. O'zbekiston Kinematografchilar uyushmasi joriy arxivi. – 1978-yil. – B. 116.
9. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining joriy arxivi. – 1975-yil; O'zbekiston SSR Kinematografiya bo'yicha Davlat qo'mitasi. – 1975-yil. – B. 116.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.